

INGLIZ TILIDAGI O'XSHATISHLAR

Sotvaldiyeva Xilola Musinovna

FarDu chet tillari kafedrası mudiri

Po'latova Irodaxon Ilhomjon qizi

FarDu 2-kurs magistranti

Axunova Mohidil Abdurahim qizi

FarDu 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'xshatish etalonlarining ingliz va o'zbek tilidagi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi va ularning lisoniy madaniy mazmuni tadqiq etiladi.

***Kalit so'zlar:** o'xshatish, metafora, allegoriya, lingvomadaniy xususiyatlar, lingvokulturologiya, leksikologiya, affiksatsiya, affiksial morfema, morfemika, morfologiya.*

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, so'z yasalishi oddiy, soddadek tuyulsada, ammo uning obyekt va subyekt tahlil mohiyati nihoyatda serqirra bo'lgani bois, tilshunoslikdan tashqari barcha sohada ham eng murakkab hodisa hisoblanadi. Sababi undagi muayyan qonuniyatlar bevosita til faktlari tahlili orqali o'z isbotini topishi kerak. Shu sabablarga ko'ra so'z yasalish hodisasini olimlar ba'zan morfologiyaga kiritishsa, ba'zan leksikologiya sohasiga tegishli deb kelishadi. Juda ko'p ilmiy asarlarda so'z yasalishi grammatikaning tarkibida berilgan bo'lsa, boshqa bir adabiyotlarda esa leksikologiyaning bir qismi sifatida tatbiq etiladi.

Hozirgi paytda so'z yasalishi nazariyasini mustaqil fan sifatida rasmiylashtirish jarayoni bu sohadagi ba'zi tushunchalarga yangicha yondashish, ba'zi so'z yasovchi

vositalarni uzil - kesil tasdiqlash va ushbu sohaga tegishli tahlil metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘z yasashining tilshunoslikdagi bu va boshqa sohalaridan farqi shundaki, bu soha va uning birliklari til ilmidagi deyarli barcha sohalar bilan yaqin munosabatda va o‘zaro bog‘lanishda bo‘ladi. So‘z yasashi tildagi yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi, tarkibiy xususiyatlari va tasnifi masalalari bilan ish ko‘ruvchi o‘ziga xos murakkab sohadir. So‘z yasashi til lug‘at tarkibini doimiy ravishda boyib borishiga xizmat qiladi. So‘z yasashi tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lib, u yangi so‘z yasash, so‘z yasash usullari va vositalarini o‘rganadi. Tildagi so‘zlarning yasash tarkibini hamda ularning yasash usullarini aniqlash bu bo‘limning asosiy vazifasidir.

Ingliz lingvomadaniyatida esa “beozorlik” timsoli sifatida “kabutar” qabul qilinganini kuzatish mumkin: As harmless as a dove (Kabutarday beozor).

She spread about her beauty for a snare, harmless as doves. (Christina Rosetti)
Yoki koreys tilida “sigirday beozor” birikmasini uchratish mumkin. O‘zbek tilidagi ”qo‘yday yuvosh“etaloni boshqa tillarda “yuvoshlik“ emas , balki qo‘rqoqlik, qaramlik, bo‘ysinuvchanlik, mustaqil fikrga ega emaslik belgisini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu ham o‘ziga xos milliy-madaniy qarash mahsulidir.

Hamma narsaning oqibatini o‘ylayverib, qo‘yday yuvosh , chumchuqday qo‘rqoq bo‘p qopman-, Sadir nozir uning ko‘zlariga qattiq tikildi. (N.Norqobilov)

People, like sheep, tend to follow a leader- occasionally in the right direction.
(Alexander Chase)

Ingliz tilida sog‘lomlik, baquvvatlikni ifodalash uchun “as healthy as a goat“ (takaday sog‘lom) etaloni qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa ”otday baquvvat” deb ishlatiladi.

Yes, yes. That’s it. You look healthy as a goat. (E.Xeminguey)

Xo‘sh. Xo‘sh. Buni qarang-a. Otday baquvvat ekansiz.

Semiz insonlar salbiy munosabat ma'nosi bildirilganda ingliz tilida cho'chqaga qiyoslanadi : He is as fat as a pig. O'zbek tilida bu o'rinda "bo'rdoqiga boqilgan qo'ydek" o'xshatishi ishlatiladi.

Yana yemishdan gapirasana!- deya o'g'liga zardasi qaynab tikildi Qo'zi qassob.- Bo'rdoqiga boqilayotgan qo'ydek yaltillab ketganingni qara (A.Obidjon.Oltin yurakli avtobola)

Qattiq bezovta, chorasiz insonlar uchun ingliz tilida " like a bat out of hell " (do'zaxdan chiqqan ko'rshapalakday), o'zbek tilida esa "oyog'i kuygan tovuqday" o'xshatishlari qo'llaniladi.

Go'zallikni ingliz lingvomadaniyatida as beautiful as a rainbow (kamalakday), as beautiful as a picture(suratday), as beautiful as a spring time (bahorday) o'xshatishlari bilan beriladi, lekin o'zbek tilida bu ma'noni ifodalash uchun " oyday", "suqsurday" o'xshatishlari mavjud bo'lib, suqsur o'rdakning bir turi bo'lgan qush nomidir. Ushbu o'xshatish faqat o'zbek tiliga xos bo'lib , unda milliy-madaniy qarashni ko'rish mumkin.

O'xshatish tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi.

"As hungry as a bear" iborasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu birikma ingliz tilida "ayiqday och" ma'nosini beradi va o'zbek tilidagi "och bo'riday" o'xshatish etaloniga teng keladi. "Och" so'zining bo'ri bilan birga ishlatilishi o'zbek lingvokulturologiyasiga xos bo'lib, o'zbek xalq ertaklaridagi och bo'ri tinglovchiga namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari ishtirok etgan muayyan o'xshatishlar mavjud bolib, ular orqali xalqning o'ziga xos milliy madaniyatini, nutq uslublarini, va tasvir vositalarini chuqur anglab yetish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir" kabi sinonim so'zlar ma'nosida ishlatiladigan "Alpomishdek" o'xshatish etaloni, ingliz tilidagi "jasur va botir" ma'nosida qo'llanuvchi "as brave as Robin Hood" o'xshatish birligi bilan sinonimlik xosil qiladi. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, o'xshatish etaloni, juda ko'plab

tillarda sinonimlikni hosil qila oladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan birikmalar bunga misol bo'la oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. O'xshatishlar o'zida ijtimoiy-tarixiy, madaniy, adabiy axborot saqlaydi. Turg'un o'xshatishlar har ikki tilning tamomila o'ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuri va an'alarini aks ettiruvchi, bejirim va ta'sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas manba, avlodlar o'rtasidagi obrazlar vorisiyligini saqlovchi muhtasham vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lisoniy madaniyatshunoslik va lingvopoetik qimmatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Sotvaldieva, H. M. (2021). Using proverbs as A lead-In activity in teaching english as A Foreign Language. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 159-163.
2. Sotvaldieva, H. M. (2020). ENGLISH PROVERBS AS A MEANS OF EXPRESSING PEOPLE'S WISDOM, SPIRIT AND NATIONAL MENTALITY. Theoretical & Applied Science, (2), 601-604.
3. Musinovna, S. H., & Tadjibaevn, M. A. (2021). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. Евразийский Союз Ученых, (1-4 (82)), 22-25.
4. Sotvoldiyeva, H. M. (2019). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. Мирская наука, (9), 53-56.
5. Сотвалдиева, Х. М. (2016). ДОСТИЖЕНИЕ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЙ ЦЕЛИ ИГРОВЫМИ МЕТОДАМИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ ВУЗА. Учёный XXI века, (4-1 (17)), 60-63.
6. Сотвалдиева, Х. М., & Дадамирзаева, Н. (2018). Синтаксическая структура английских пословиц. Молодой ученый, (44), 306-307.